

Jinoyatchilik statistikasi bo'yicha uslubiy nizom

Mazkur uslubiy nizom mamlakatda sodir etilgan jinoyatlar va jinoyat sodir etgan shaxslar soni, jinoyatchilik darajasi hamda jinoyat turlari to'g'risidagi rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy nizom Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlari namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model – GSBPM) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, quyidagi asosiy ta'rif va tushunchalar keltirilgan:

jinoatchilik statistikasi – jinoyatlar, jinoyat sodir etgan shaxslar va jinoyat oqibatlarini miqdoriy ko'rsatkichlar orqali tavsiflovchi rasmiy statistika sohasi;

ro'yxatga olingan jinoyat – huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan belgilangan tartibda hisobga olingan jinoyat;

jinoatchilik ko'effitsiyenti – muayyan davr va hudud bo'yicha har 10 000 nafar doimiy aholiga to'g'ri keladigan ro'yxatga olingan jinoyatlar sonini ifodalovchi nisbiy statistik ko'rsatkich;

jinoat sodir etgan shaxs – jinoyat sodir etganligi aniqlangan shaxslar to'g'risidagi hisob ma'lumotlarida qayd etilgan shaxs;

jinoat – jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan, jamiyat uchun xavfli bo'lgan va javobgarlikka sabab bo'ladigan noqonuniy harakat yoki harakatsizlik. Jinoyatlar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir, o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi;

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar – qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi;

uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar – qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir

etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi;

og‘ir jinoyatlar – qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin o‘n yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi;

o‘ta og‘ir jinoyatlar – qasddan sodir etilib, qonunda o‘n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

2-bob. Jinoyatchilik statistikasini shakllantirish manbai

2. Jinoyatchilik statistikasi bo‘yicha ma’lumotlarni shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlardan foydalaniladi. Ushbu ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan umumlashtirilib, har chorakda ma’muriy ma’lumot shaklida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasiga taqdim etiladi. Ma’lumotlarning to‘liqligi, ishonchliligi, o‘z vaqtida taqdim etilishi Statistika dasturiga muvofiq Ichki ishlar vazirligi zimmasiga yuklatiladi.

3-bob. Jinoyatchilik statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish

3. Ichki ishlar vazirligi tomonidan taqdim etiladigan ma’muriy ma’lumotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

ro‘yxatga olingan jinoyatlar soni;

10 ming aholiga nisbatan jinoyatchilik koeffitsiyenti;

jinoyatlar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi;

jinoyatlar sonining xavflilik darajasi bo‘yicha taqsimlanishi (*ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar*);

jinoyat sodir etgan shaxslar soni (*jinsi bo‘yicha*);

jinoyat sodir etgan shaxslar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi (*jinsi bo‘yicha*).

Mazkur ma’lumotlar Milliy statistika qo‘mitasi mas’ul xodimlari tomonidan o‘rganib chiqilib, oldingi yilning tegishli davri bilan taqqoslanadi. Zarur hollarda ma’lumotlarga Ichki ishlar vazirligidan aniqlik kiritiladi.

4. Ichki ishlar vazirligi tomonidan taqdim etiladigan ma'muriy ma'lumotlar asosida jinoyatchilik statistikasiga oid nisbiy statistika ko'rsatkichlari quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

Qoida: barcha ulush, foizlar verguldan keyin bir xonali raqamlarda ifodalanadi, nafar yoki kishini ifoda etuvchi raqamlar butun songacha yaxlitlanadi.

Har 10 000 nafar aholiga nisbatan jinoyatchilik koeffitsiyenti

$$C = \frac{C_t}{P_t} \times 10\,000$$

bu yerda:

C — 10 000 nafar aholiga nisbatan jinoyatchilik koeffitsiyenti;

C_t — ro'yxatga olingan jinoyatlarning umumiy soni, ta;

P_t — o'rtacha yillik doimiy aholi soni, kishi

Masalan, 2025- yilda 155 002 ta jinoyat ro'yxatga olingan. 2025- yilda o'rtacha yillik doimiy aholi soni 38 236 669 nafarni tashkil etgan. Har 10 000 nafar aholiga nisbatan jinoyatchilik koeffitsiyenti quyidagicha hisoblanadi:

$$C = \frac{155\,002}{38\,236\,669} \times 10\,000 = 40,5$$

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2025 -yilda har 10 ming nafar aholiga nisbatan jinoyatchilik koeffitsiyenti o'rtacha 40,5 ni tashkil etdi.

Jinoyat sodir etgan shaxslar koeffitsiyenti

$$C_{person} = \frac{C_p}{P_t} \times 10\,000$$

bu yerda: C_{person} — 10 000 nafar aholiga nisbatan jinoyat sodir etgan shaxslar koeffitsiyenti;

C_p — jinoyat sodir etgan shaxslar soni, nafar;

P_t — o'rtacha yillik doimiy aholi soni, kishi;

Masalan, 2025- yilda jinoyat sodir etgan shaxslarning jami soni 61 500 kishi, shuningdek, o'rtacha yillik doimiy aholi soni 38 236 669 nafarni tashkil etgan. Har

10 000 nafar aholiga nisbatan jinoyat sodir etgan shaxslar soni quyidagicha hisoblanadi:

$$C_{person} = \frac{61\,500}{38\,236\,669} \times 10\,000 = 16,1$$

Hisob-kitoblarga ko'ra, har 10 000 nafar aholiga nisbatan 16,1 nafar shaxs jinoyat sodir etganligi aniqlandi.

4-bob. Jinoyatchilik statistikasi ma'lumotlarini tarqatish

5. Har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturiga muvofiq, jinoyatchilik statistikasiga oid ma'lumotlar shakllantirilib, quyidagi manbalarda e'lon qilinadi:

Axborotnoma: "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati" choraklik axborotnomasi;

yillik statistika to'plamlari:

"O'zbekiston raqamlarda"; "O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi";

"O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami";

"Ayollar va erkaklar" statistik to'plami;

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy veb-sayti;

www.siat.stat.uz statistika integrallashgan axborot tizimi.

6. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Rasmiy statistika ma'lumotlarini tarqatish reglamentiga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslarning yozma so'rovlari asosida ham taqdim etiladi.

7. O'zaro mos kelmaydigan ma'lumotlar aniqlanganda, ular Ichki ishlar vazirligi bilan kelishilgan holda belgilangan muddatlarda aniqlashtiriladi. Ma'lumotlar aniqligiga vazirlik javobgar hisoblanadi.

8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi maxfiy va shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlashda O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni talablariga qat'iy rioya etiladi.

9. Ma'lumotlar yangilanganda yoki qayta tasniflanganda asosli sababi ko'rsatilgan holda qayta e'lon qilinishi mumkin.

5-bob. Yakuniy qoidalar

10. Uslubiy nizom jinoyatchilik sohasi bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon beruvchi ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ning 16-maqsadi (tinchlik va adolat) ko'rsatkichlarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

11. Mazkur uslubiy nizomni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'RQ-707-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-27-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan qayd etilgan ma'lumotlar.
6. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2021-yil 15-noyabrdagi 16/1020-21-son qo'shma qarori.